



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"

KENGASH YI'G'ILISHINING MAJLIS BAYONIDAN KO'CHIRMA

Toshkent shahri

№ 2025/14

2025 yil 4 iyun

Yig'ilish raisi:

O. Isakov (masofadan)

Ishtirokchilar:

Kengash a'zolari:

U. Muxtarov (masofadan)
M. Atadjanov (masofadan)
Y. Ayzup (masofadan)
U. Ahmedov (masofadan)
S. Djarbolova (masofadan)
F. Tuinstra (masofadan)
O. Ulyanova (masofadan)
G. Chiladze (masofadan)

Korporativ maslahatchi

K. Alimov

Taklif etilganlar:

Boshqaruv raisi

A. Akbarjonov

Kengash a'zolari:

A. Ergashev, Sh. Yakubov, S. Ismagilov.

Bankning bosh ofisi tarkibiy bo'linmalari
rahbarlari

F. Abdurahmonov, M. Eshmatov,
O. Ekler, Sh. Ismoilov, D. Sadirov,
M. Tangishov, A. Hakimov, A. Orifjonov,
U. Aminova.

Yig'ilishda Kengashning 9 nafar a'zosi ishtirok etdi va Kengash majlisi kvorumi ta'minlandi.

Kengash majlisining kun tartibi:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining yillik hisoboti loyihasi, shuningdek, bankning 2024-yil yakuni bo'yicha rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida.

2. 2024 yil yakuni bo'yicha yillik hisobot loyihasi (oshkor qilish talablariga asosan).

3. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2024-yil moliyaviy faoliyati tekshiruvini yakunlari bo‘yicha tashqi auditor xulosasi.

4. 2025-yil uchun bank faoliyatini auditdan o‘tkazish bo‘yicha tashqi auditorni tanlash va uning xizmatlari uchun to‘lanadigan eng yuqori haq miqdori to‘g‘risidagi ma’lumot.

5. 2024-yil yakunlari bo‘yicha bank foydasini taqsimlash va aksiyalar bo‘yicha to‘lanadigan dividendlar miqdorlari bo‘yicha tavsiyalar loyihasi, shuningdek, 2025–2026 korporativ yili (01.07.2025 yildan 01.07.2026 yilgacha) uchun Bank Kengashining har bir mustaqil a‘zosi uchun to‘lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash to‘g‘risida.

6. 2025–2026 korporativ yili (01.07.2025 yildan 01.07.2026 yilgacha) uchun Bank Boshqaruvi a‘zolariga to‘lanadigan mukofotning eng yuqori miqdorini belgilash to‘g‘risida.

7. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Boshqaruvi raisi va a‘zolarining vakolatlarini 1 (bir) yil muddatga tasdiqlash to‘g‘risida.

8. 2024-yil yakunlari bo‘yicha “O‘zsanoatqurilishbank” ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi, vaqti va joyini, kun tartibini, aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasini, aksiyadorlar uchun e‘lon matni, ovoz berish byulletenining shakli va matni hamda bank aksiyadorlari va davlat vakillariga yillik umumiy yig‘ilishda ishtirok etish uchun taqdim etiladigan hujjatlar ro‘yxati va to‘plamini tasdiqlash to‘g‘risida.

QAROR QILDI:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti, shuningdek, bankning rivojlanish strategiyasini bajarilishi bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisoboti ma’qullansin va bankning navbatdagi aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a‘zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

2. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2024-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisobotini ma’qullansin hamda uni Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig‘ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a‘zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

3. “O‘zsanoatqurilishbank” ATBning 2024-yil yakunlari bo‘yicha moliyaviy faoliyati natijalariga oid “PricewaterhouseCoopers” MCHJ tashqi auditorining xulosasini ma’lumot uchun qabul qilinsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

4. “Pricewaterhousecoopers” MChJ bilan 2025 yil uchun yillik va yarim yillik konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlarni hamda kovenantlarni hisoblash va ularga rioya qilish bo'yicha kelishilgan jarayonlari to'g'riligini tekshirish uchun, shuningdek 2025-yil uchun Osiyo Taraqqiyot Banki (OTB) bilan tuzilgan kelishuv doirasida loyiha moliyaviy hisobotining auditini o'tkazish bo'yicha auditorlik xizmatlarini sotib olish to'g'risida shartnoma tuzish, xizmatlar uchun to'lovning maksimal miqdorini belgilash masalasini ma'qullash va bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritish.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

5. “O‘zsanoatqurilishbank” ATB Kengashining 2024-yil yakunlari bo'yicha faoliyati natijalariga muvofiq foydani taqsimlash, shuningdek, hisobot yili yakunlari bo'yicha bank aksiyalari bo'yicha dividendlar miqdorini belgilash to'g'risidagi tavsiyalari ma'qullansin hamda Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

6. 2025–2026 korporativ yili uchun Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash hamda samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bajarilishiga asosida to'lanadigan mukofotni o'z ichiga olgan tavsiyalar ma'qullansin va Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishiga tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

7. Bank Kengashining Bank Boshqaruvi Raisi va a'zolarining vakolat muddatini 1 (bir) yilga uzaytirish bo'yicha taklifi ma'qullansin hamda Bank aksiyadorlarining navbatdagi yillik umumiy yig'ilishida ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilsin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

“Ma’qul” – 9 ovoz, “qarshi” – yo‘q, “betaraf” – yo‘q

8. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini 2025-yil 30-iyun kuni, soat 11:00 da (Toshkent vaqti bilan) chaqirish, aksiyadorlar va ularning vakillarini ro'yxatga olish soat 10:00 da boshlanishi belgilansin. Yig'ilish masofaviy tarzda, <http://evote.uz/> elektron ovoz berish tizimi orqali o'tkaziladi.

8.1. Aksiyadorlarga yillik umumiy yig'ilish o'tkazilishi to'g'risida xabarnoma yuborish uchun aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 5-iyun kuni belgilansin.

8.2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun aksiyadorlar reestrini shakllantirish sanasi 2025-yil 24-iyun kuni belgilansin.

8.3. Yig'ilish kun tartibiga quyidagi masalalar kiritilsin:

1. Bank Kengashi va Boshqaruvining 2024-yil yakunlari bo'yicha faoliyati hamda bankni rivojlantirish strategiyasining bajarilishi bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlarini eshitish.

2. Bankning 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik hisobotini tasdiqlash.

3. Bank foydasini taqsimlash va Kengashning har bir mustaqil a'zolariga 2025-2026 korporativ yil uchun to'lanadigan mukofot va kompensatsiyaning eng yuqori miqdorini belgilash.

4. 2025-2026 korporativ yili uchun Bank Boshqaruvi a'zolariga to'lanadigan mukofotning maksimal miqdorini belgilash.

5. Bank Boshqaruvi raisi va Boshqaruv a'zolarining vakolatlarini 1 (bir) yilga tasdiqlash to'g'risida.

6. 2025 moliya yili bo'yicha Bankda tashqi auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun tashqi auditor tashkilotini va ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p xaq miqdorini belgilash.

7. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning "2024-2026 yillarda rivojlanish strategiyasi" maqsadli ko'rsatgichlariga kiritilayotgan o'zgarishlarni tasdiqlash to'g'risida.

8. "O'zsanoatqurilishbank" ATBning "Korporativ boshqaruv kodeksi" (yangi tahriri)ni tasdiqlash.

9. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi reglament" (yangi tahriri)ni tasdiqlash to'g'risida.

10. "O'zsanoatqurilishbank" ATB Kengashi to'g'risidagi Nizom" (yangi tahriri)ni tasdiqlash to'g'risida.

8.4. "O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining yillik umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi xabarnoma matnini tasdiqlansin.

8.5. "O'zsanoatqurilishbank" ATB aksiyadorlarining 2024-yil yakunlari bo'yicha yillik umumiy yig'ilishida ovoz berish byulleteni shakli va matni tasdiqlansin.


8.6. 2024-yil yakunlari bo'yicha aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish jarayonida aksiyadorlarga va davlat vakiliga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati va to'plamini tasdiqlansin.

Ovoz berish natijalari.

Ovoz berganlar: 9 a'zo, shu jumladan

"Ma'qul" – 9 ovoz, "qarshi" – yo'q, "betaraf" – yo'q

Korporativ maslahatchi



K. Alimov

Kotib



D. Abduqodirov

Bayonnoma rasmiylashtirilgan sana: 2025 yil “ 13 ” iyun.